

Yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan caqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat kursatish faoliyatini litsenziyalash

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish maddatlari
1-bosqich	Litsenziya talabgori - yuridik shaxs	<p>1. Yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va yong'indan saqlovchi signalizatsiyalarni loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini litsenziyalashtirish to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan ro'yxatga muvofiq litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlaydi.</p> <p>2. Hujjatlarni Ichki ishlar vazirligiga bevosita yoxud ularning olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan pochta orqali yoki elektron shaklda taqdim etadi.</p>	Litsenziya talabgorining xohishiga ko'ra.
2-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi	<p>1. Litsenziya olish uchun taqdim etilgan hujjatlar litsenziyalovchi organ tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, uning bir nusxasi hujjatlar olingan sana ko'rsatilgan holda ariza beruvchiga yuboriladi (topshiriladi).</p> <p>2. Hujjatlarni ko'rib chiqadi va litsenziya talabgoriga litsenziya berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.</p> <p>3. Litsenziya talabgori tomonidan litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar bartaraf etilib takroran taqdim etilgan taqdirda hujjatlarni ko'rib chiqadi va qaror qabul qiladi.</p>	<p>1. Hujjatlarni qabul qilish kunida.</p> <p>2. Ariza olingan kundan boshlab 20 kundan ortiq bo'lmagan muddatda.</p> <p>3. Hujjatlar takroran taqdim etilgandan keyin 10 kun mobaynida.</p>
3-bosqich		<p>1. Litsenziya talabgorini qabul qilingan qaror to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi. Litsenziya talabgoriga litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqidagi xabar bilan bir vaqtda imzolash uchun litsenziya bitimi yuboriladi.</p> <p>2. Litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda litsenziya talabgoriga bildirishnoma rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda yozma</p>	Tegishli qaror qabul qilingandan keyin 3 kun mobaynida.

ravishda yuboriladi (topshiriladi).

3. Reyestrda tegishli yozuvni yozib qo'yadi.

4-bosqich

Litsenziya talabgori

1. Litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda hujjatlarni takroran taqdim etish huquqiga ega.

2. Litsenziya talabgorlarining arizalari takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

3. Litsenziya berish rad etilganligi to'g'risida xabardor qilingandan keyin o'ttiz kundan so'ng berilgan ariza yangidan berilgan ariza hisoblanadi.

Litsenziya talabgori litsenziya berish rad etilishi to'g'risida xabardor qilingan kundan boshlab 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda.

Litsenziyat

Litsenziyalovchi organga litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etadi hamda litsenziya bitimini imzolaydi. Ushbu shartlar bajarilmagan taqdirda litsenziyalovchi organ litsenziya berish to'g'risidagi qarorni bekor qilishga haqlidir.

Litsenziya talbgoriga litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqida bildirishnoma yuborilgan vaqtdan boshlab 3 oydan kechikmay.

5-bosqich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Litsenziyat tomonidan litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan hamda litsenziya bitimi imzolangandan keyin tegishli litsenziyani rasmiylashtiradi va beradi.

Litsenziya bitimi imzolangandan va davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan keyin .